

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**SOCIAL IDENTITY AND THE INDIVIDUAL'S CONFLICT WITH SOCIETY (BASED ON THE WORKS OF YOUNG POETS)****Abdulazizbek Kodirov**

Acting Associate Professor, PhD (Doctor of Philosophy) in Philology

Andijan Branch of Kokand University

Abdulazizzzkodirov@gmail.com

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: social identity, individual and society, identity crisis, lyrical protagonist, poetry of the younger generation, selfhood, literary analysis.

Received: 03.09.26**Accepted:** 04.09.26**Published:** 05.09.26

Abstract: The article examines the artistic representation of social identity and the conflict between the lyrical protagonist and society in the works of young Uzbek poets who came of age during the years of independence. The main principles of social identity theory are applied to the analysis of literary texts. Particular attention is paid to the poetic function of the opposition between the pronouns "we" and "I," the individual's position under the gaze of society, the need for differentiation and its social evaluation, as well as situations in which the search for belonging to a particular social environment remains unresolved. Based on specific poetic texts, the article identifies the principal forms of social identity and its crisis. It concludes that in the poetry of the younger generation, social identity becomes most apparent at the point of crisis, when an individual is unable to find a stable place within the community and is compelled to redefine the self.

IJTIMOIIY IDENTITET VA SHAXSNING JAMIYAT BILAN ZIDDIYATI (YOSH SHOIRLAR IJODI MISOLIDA)**Abdulazizbek Qodirov**

Qo'qon universiteti Andijon filiali dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD)

Abdulazizzzkodirov@gmail.com

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: ijtimoiy identitet, shaxs va jamiyat, identitet inqirozi, lirik qahramon, yosh avlod she’riyati, o‘zlik, badiiy tahlil.

Annotatsiya: Maqolada istiqbol yillarida voyaga yetgan yosh o‘zbek shoirlari ijodida ijtimoiy identitetning badiiy ifodasi va lirik qahramonning jamiyat bilan ziddiyati masalasi tadqiq etiladi. Tadqiqotda ijtimoiy identitet nazariyasining asosiy qoidalari badiiy matn tahliliga tatbiq qilinadi, “biz” va “men” olmoshlari qarshilanishining she’riy vazifasi, jamiyat nigohi ostidagi shaxsning holati, farqlanish ehtiyoji va uning ijtimoiy bahosi, mansublik izlanishining javobsiz qolishi kabi holatlar aniq matnlar asosida ko‘rsatib beriladi. Muallif yosh avlod she’riyatida ijtimoiy identitet inqiroz nuqtasida, ya’ni shaxsning o‘zini jamoa ichida topa olmagan payti eng yorqin namoyon bo‘ladi, degan xulosaga keladi.

СОЦИАЛЬНАЯ ИДЕНТИЧНОСТЬ И КОНФЛИКТ ЛИЧНОСТИ С ОБЩЕСТВОМ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА МОЛОДЫХ ПОЭТОВ)

Абдулазизбек Кодиров

И. о. доцента Андижанского филиала Кокандского университета

PhD по филологии

Abdulazizzzkodirov@gmail.com

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	социальная идентичность, личность и общество, кризис идентичности, лирический герой, поэзия молодого поколения, самость, художественный анализ.
Аннотация:	В статье рассматриваются художественное выражение социальной идентичности и проблема конфликта лирического героя с обществом в творчестве молодых узбекских поэтов, достигших творческой зрелости в годы независимости. Основные положения теории социальной идентичности применяются к анализу художественных текстов. Особое внимание уделяется поэтической функции противопоставления местоимений «мы» и «я», состоянию личности под воздействием общественного взгляда, стремлению к дифференциации и его социальной оценке, а также ситуации, когда поиск принадлежности к определённой социальной среде остаётся без ответа. На конкретном материале поэтических текстов выявляются основные формы проявления социальной идентичности и её кризиса. Делается вывод о том, что в поэзии молодого поколения социальная идентичность наиболее ярко проявляется в

ситуации кризиса, когда личность не способна найти устойчивое место внутри сообщества и вынуждена заново определять собственное «я».

Kirish. Istiqlol davri o'zbek she'riyatining eng sezilarli belgilaridan biri shaxs va jamiyat munosabatining tubdan qayta ko'rilishidir. Sho'ro yillari adabiyotida bu munosabat ko'p hollarda tayyor tarzda berilar, ya'ni shaxs jamoa ichida o'z o'rnini topgan, jamoa esa uni qabul qilgan holda tasvirlanar edi. Ziddiyat bo'lsa, u odatda tashqi kuchga, dushmanga yoki eskilik sarqitiga qarshi kurash tarzida yechim topardi. Mustaqillikning dastlabki o'n yilligidan boshlab manzara o'zgardi. Adabiyotga kelgan yangi avlod uchun jamiyat endi tayyor va tabiiy makon emas, balki savol ostiga olinadigan, o'lchab ko'riladigan, ba'zan esa lirik qahramonni siqib qo'yadigan muhitga aylandi. Bu o'zgarish faqat mavzu doirasida qolmadi, u she'riy nutqning o'ziga ham ta'sir qildi. Avvalgi davr she'riyatida keng qo'llangan "biz" olmoshi yosh shoirlar matnlarida siyraklashdi, uning o'rnini yolg'iz va ko'pincha himoyasiz "men" egalladi. Ayni shu almashinuv ijtimoiy identitet masalasini adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan o'rganish uchun qulay material beradi. Zero identitet nazariyasi tilida aytganda, "biz" ning yo'qolishi mansublik hissining zaiflashuvidan, "men" ning kuchayishi esa farqlanish ehtiyojining ortishidan darak beradi. Maqolada istiqlol yillarida ijod qilgan yosh shoirlar, jumladan Behzod Fazliddin, Guljamol Asqarova, Jontemir, Baxtiniso, Tillaniso she'rlari misolida ijtimoiy identitetning badiiy talqini va uning inqirozga yuz tutish shakllari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy identitet tushunchasi ilmiy muomalaga ijtimoiy psixologiya orqali kirdi. Anri Tajfel va Jon Terner ijtimoiy o'zlikni shaxsning o'zi mansub bo'lgan guruh haqidagi bilimi va shu mansublikka bergan hissiy qiymati sifatida izohlaydi. Ularning fikricha, inson o'zini boshqalar bilan qiyoslash orqali belgilaydi va shu qiyoslashda o'z guruhiga ijobiy baho berishga intiladi [1:34]. Richard Jenkins bu jarayonni o'xshashlik va farqlanishning to'xtovsiz o'yini deb qaraydi. Uning talqinicha, identitet bir marta olinadigan narsa emas, u har kuni qaytadan tasdiqlanishi kerak bo'lgan jarayon, chunki inson o'zini kimgadir o'xshatgan paytda ayni vaqtda kimdandir ajratib ham oladi [4:24]. Jorj Gerbert Mid esa shaxsning o'z haqidagi tasavvuri boshqalarning nigohida shakllanishini ta'kidlagan edi. Uning "ko'zguga qarash" tamsili adabiy tahlil uchun ayniqsa qulay, chunki lirik qahramonning o'zini odamlar ko'zi bilan ko'rishi she'riyatda tez tez uchraydigan holat [6:98]. Manuel Kastels identitetning uch turini, ya'ni qonuniylashtiruvchi, qarshilik va loyiha identitetini ajratadi. Qarshilik identiteti jamiyatda o'zini qadrsizlangan deb hisoblagan guruh yoki shaxsning himoya reaksiyasi sifatida yuzaga keladi [5:98]. Erik Erikson identitet inqirozini shaxs kamolotining tabiiy bosqichi deb bilgan bo'lsa,

Zigmunt Bauman va Entoni Giddens zamonaviy jamiyatda bu inqiroz bosqich emas, doimiy holatga aylanganini ko'rsatdi [9:76].

O'zbek adabiyotshunosligida shaxs va jamiyat munosabati asosan lirik qahramon muammosi doirasida o'rganilgan. Ulug'bek Hamdam yangilanish jarayonini tahlil qilar ekan, yangi she'riyatda insonning o'z ichiga tortilishi tasodifiy emasligini, u ijtimoiy tafakkurdagi jiddiy siljish natijasi ekanini ta'kidlaydi. Qozoqboy Yo'ldoshev badiiy matnda shaxs tajribasining qanday tarzda umumiy ma'no kasb etishi haqida fikr yuritadi. Dilmurod Qur'onov lirik qahramon va muallif munosabatini nazariy jihatdan aniqlashtirish orqali bunday tahlilning metodologik asosini beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur ishlarda identitet atamasi bevosita qo'llanmaydi, biroq ularda ilgari surilgan mulohazalar ijtimoiy identitet tahlili uchun bevosita zamin yaratadi.

Ijtimoiy identitetning she'riy matndagi eng aniq belgisi olmoshlar tizimidir. Shoir qaysi olmoshda gapirayotgani, kimning nomidan so'z aytayotgani, o'zini qaysi doiraga kiritayotgani matnning ijtimoiy yo'nalishini belgilab beradi. Yosh avlod she'riyatida "biz" olmoshi butunlay yo'qolgan emas, lekin uning vazifasi o'zgargan. Avvalgi davrda "biz" ko'tarinki ohang bilan, jamoaning kuchini ifodalash uchun kelar edi. Endi u ko'pincha yo'qotish, aybdorlik yoki nadomat ohangi bilan yuklanadi, ya'ni shoir "biz" deganda birlashgan jamoani emas, birlasha olmagan avlodni nazarda tutadi. Bu o'rinda diqqatga sazovor jihat shundaki, lirik qahramon jamoadan chiqib ketmaydi, u jamoa ichida turib uni tanqid qiladi. Jenkinsning atamasi bilan aytganda, bu o'xshashlik va farqlanishning bir vaqtda yuz berishi, ya'ni shaxs o'zini shu jamoaning a'zosi deb bilgani holda uning holatini qabul qila olmaydi.

Metodologiya. Maqolada ijtimoiy identitetning badiiy ifodasini ochib berishda ijtimoiy-psixologik va adabiyotshunoslik yondashuvlari integratsiyasi asos qilib olingan. Xususan, A. Tajfel va J. Ternerning ijtimoiy identitet nazariyasi, R. Jenkinsning mansublik va farqlanish konsepsiyasi, J. H. Midning "boshqalar nigohi" haqidagi qarashlari, M. Kastelsning identitet turlari hamda Z. Bauman va E. Giddensning zamonaviy identitet haqidagi nazariy fikrlari badiiy matnlarni talqin qilishning nazariy asosini tashkil etadi.

Tadqiqot materialini istiqlol yillarida ijod qilgan yosh o'zbek shoirlari, jumladan Behzod Fazliddin, Guljamol Asqarova, Jontemir, Baxtiniso va Tillaniso she'rlari tashkil etadi. Tahlilda matnning mazmuniy-semantik, lingvopoetik va qiyosiy-tahliliy usullari qo'llanib, "biz" va "men" olmoshlarining qo'llanishi, jamiyat nigohi, shaxsning mansublik va farqlanish ehtiyoji, yolg'izlik hamda oraliq identitet holatlari aniqlanadi.

Metodologik jihatdan muhim tamoyil sifatida nazariy tushunchalarni badiiy matnga majburan tatbiq etmaslikka e'tibor qaratiladi: faqat shaxs va jamiyat munosabati bevosita ifodalangan she'rlar ijtimoiy identitet nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi.

Natija. Ijtimoiy identitetning shakllanishida boshqalarning nigohi hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbek she'riyatida bu holat "odamlar nima deydi" degan xalqona ifodada eng aniq ko'rinishini topgan. Behzod Fazliddinning "Odamlar nima derkin?" she'ri ayni shu masalaga bag'ishlangani bilan ahamiyatlidir. Unda lirik qahramonning har bir harakati oldindan boshqalarning bahosiga moslab o'lchanadi va shu o'lov oxir oqibat uning o'z xohishini bo'g'ib qo'yadi.

She'rda jamiyat konkret shaxslar sifatida emas, umumlashgan va yuzsiz kuch sifatida namoyon bo'ladi. Uning na ismi bor, na manzili, u faqat nigoh va hukm tarzida mavjud. Aynan shu yuzsizlik uni yanada kuchli qiladi, chunki unga qarshi bahslashib bo'lmaydi. Mid nazariyasi nuqtayi nazaridan bu holat shaxsning o'z haqidagi tasavvurini butunlay tashqi manbaga topshirib qo'yishi hisoblanadi.

Xuddi shu chiziq shoirning "Aybnoma" she'rda yanada keskinlashadi. Bu yerda lirik qahramon o'ziga qo'yilgan aybni rad etmaydi, aksincha uni qabul qiladi va o'z ustidan hukm chiqarishga kirishadi.

Bu holatni oddiy tavba deb tushunish yetarli emas. Matn mantig'iga ko'ra, ayb lirik qahramonning ichki e'tiqodidan emas, tashqi bahodan kelib chiqadi, ya'ni u aybdor bo'lgani uchun emas, aybdor deb bilingani uchun aybdor. Ijtimoiy identitet nazariyasida bunday holat mansublikning eng og'ir shakli, chunki shaxs guruh baholarini shu qadar chuqur o'zlashtiradiki, ularni o'z fikri deb his qila boshlaydi.

Guljamol Asqarovaning "Yaxshisi" she'rda esa xuddi shu bosim ayol qahramon tajribasi orqali beriladi. Undagi murosah ohangi ortida jamiyat bilan ochiq to'qnashuvdan qochish, o'zini asrash uchun jimlikni tanlash turadi. [10]

Yosh avlod she'riyatida shunday matnlar borki, ularda lirik qahramon ochiq farqlanishni tanlaydi va buning evaziga yolg'izlikni qabul qiladi. Bu yerda muhim bir nozik jihat bor. Farqlanish she'riyatda ko'pincha g'urur bilan emas, og'riq bilan ifodalanadi. Lirik qahramon o'zining boshqacha ekanidan faxrlanmaydi, u shu boshqachalik uni odamlardan uzoqlashtirayotganidan iztirob chekadi. Kastels ta'riflagan qarshilik identiteti odatda kurashchan ruhda tasavvur qilinadi, o'zbek she'riyatidagi ko'rinishi esa ancha boshqacha, ya'ni u ko'proq chekinish, sukut va ichga tortilish shaklida namoyon bo'ladi.

Shu o'rinda tahlilda ehtiyot bo'lish kerak bo'lgan bir holatni ta'kidlash joiz. Har qanday yolg'izlik she'ri ijtimoiy identitet dalili bo'la olmaydi. Faqat lirik qahramon bilan odamlar munosabati she'rning o'z mavzusi bo'lgan matnlargina bunday tahlilga asos beradi. Aks holda tadqiqotchi nazariyani matnga zo'rlab yopishtirgan bo'lib qoladi va bu ilmiy xulosaning ishonchliligini yo'qqa chiqaradi.

Yosh shoirlar ijodidagi eng o'ziga xos holat na to'liq mansublik, na to'liq qarshilik bilan izohlanadigan oraliq vaziyatdir. Bunda lirik qahramon o'zi o'sgan muhitdan uzilgan, yangi

muhitga esa singiʻ ketmagan boʻladi. Bu holat ayniqsa qishloqdan shaharga koʻchish mavzusida yozilgan sheʼrlarda yorqin koʻrinadi. Jontemir sheʼriyatida bu ziddiyat butun bir tizim darajasiga koʻtarilgan. Uning “Arosat” sheʼri nomining oʻzi ham holatni aniq ifodalaydi, yaʼni ikki dunyo oʻrtasida qolgan, hech biriga tegishli boʻlmagan odam holati.

Shaharda lirik qahramon begona, chunki uning tili, odati, xotirasi boshqa. Qishloqqa qaytish esa imkonsiz, chunki u yerda uni kutgan dunyo allaqachon oʻzgargan. Natijada mansublik izlanishi javobsiz qoladi va shaxs ikki makon oraligʻida muallaq turib qoladi. Bauman taʼbiri bilan aytganda, bu zamonaviy insonning tipik holati, yaʼni doimiy manzil emas, doimiy koʻchish holati.

Bu oʻrinda ijtimoiy identitet makon identiteti bilan kesishadi, chunki jamoaga mansublik koʻpincha aniq bir joyga mansublik orqali his qilinadi. Joy yoʻqolgach, jamoa ham yoʻqoladi. Yuqorida koʻrib chiqilgan uchala holat, yaʼni boʻysunish, farqlanish va oraliqda qolish, oxir oqibat bir nuqtaga olib keladi. Bu nuqtada lirik qahramon nafaqat jamoadagi oʻrmini, balki oʻzini ham yoʻqotadi.

Jontemirning “Faryod” sheʼrida bu holat tayanchning quladi degan tasvir orqali beriladi. Sheʼrda inson tayanadigan barcha nuqtalar, yaʼni togʻ, odam, eʼtiqod birin ketin yemiriladi va oxirida faqat ovoz qoladi.

Faxriyorning “XX asr odami” sheʼrida esa inqiroz butun bir davr belgisi darajasiga koʻtariladi. Bu yerda gap ayrim shaxsning ruhiy holati haqida emas, avlodning umumiy tajribasi haqida boradi. Diqqatga sazovor jihat shundaki, bu sheʼrlarning birortasida ham yechim taklif etilmaydi. Shoʻro davri sheʼriyatida ziddiyat, qanchalik keskin boʻlmasin, oxirida jamoa bilan yarashuv orqali bartaraf etilar edi. Yosh avlod matnlarida bunday yarashuv yoʻq, ziddiyat ochiq qoldiriladi. Bu badiiy zaiflik emas, aksincha yangi sheʼriy tafakkurning belgisi, chunki tayyor javob berilmagan matn oʻquvchini oʻz holati ustida oʻylashga majbur qiladi.

Istiqlol davrida voyaga yetgan yosh shoirlar ijodida ijtimoiy identitet masalasi oʻziga xos tarzda hal qilinadi. Ularning sheʼriyatida jamiyat lirik qahramonni qoʻllab quvvatlaydigan muhit sifatida emas, uni oʻlchaydigan, baholaydigan va shu baho orqali shakllantiradigan kuch sifatida gavdalanadi. Shu bois mansublik hissi bu sheʼriyatda quvonch emas, koʻpincha ogʻriq bilan bogʻlanadi. Tahlil koʻrsatadiki, yosh avlod matnlarida shaxs va jamiyat munosabati uch xil koʻrinishda namoyon boʻladi. Birinchisida shaxs jamiyat bahosini shu qadar chuqur qabul qiladiki, uni oʻz fikri deb his qila boshlaydi va oʻz ustidan oʻzi hukm chiqaradi. Ikkinchisida u farqlanishni tanlaydi, biroq bu tanlov gʻurur bilan emas, yolgʻizlik va iztirob bilan toʻlanadi. Uchinchisida esa u ikki muhit oraligʻida qolib ketadi va mansublik izlanishi javobsiz qoladi. Ana shu uchinchi holat zamonaviy oʻzbek sheʼriyati uchun eng xarakterli boʻlib, u ijtimoiy identitet inqirozining badiiy ifodasi sifatida qaralishi mumkin.

Muhimi shundaki, bu inqiroz she'riyatda salbiy hodisa sifatida emas, o'zlikni anglashning yangi shakli sifatida namoyon bo'lmoqda. Shaxs tayyor jamoaviy qolipni qabul qilishdan bosh tortar ekan, u o'z o'rnini mustaqil izlashga majbur bo'ladi va aynan shu izlanish yosh avlod lirikasining ichki harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi. Shu ma'noda ijtimoiy identitet mavzusi zamonaviy o'zbek she'riyatini o'rganishda kelgusida ham istiqbolli yo'nalish bo'lib qolaveradi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, yosh o'zbek shoirlari ijodida ijtimoiy identitet masalasi shaxsning muayyan guruhga oddiy mansubligi bilan cheklanmaydi. U, avvalo, shaxsning jamiyat tomonidan qanday qabul qilinishi, o'zini boshqalar nigohida qanday tasavvur qilishi va jamoaviy qadriyatlar bilan o'z individual ehtiyojlari o'rtasidagi munosabat orqali namoyon bo'ladi. Shu jihatdan tahlil qilingan she'rlarda ijtimoiy identitet statik holat emas, balki doimiy ravishda qayta ko'rib chiqiladigan ruhiy-ijtimoiy jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Bu jihat Jenkinsning identitetni mansublik va farqlanishning uzluksiz jarayoni sifatida talqin qilishi bilan uyg'unlashadi [2].

Tahlil natijalarida aniqlangan "men" va "biz" qarama-qarshiligi ham mazkur jarayonning muhim lingvopoetik ko'rsatkichi ekanini ko'rish mumkin. "Men"ning kuchayishi faqat individualizmning ortishi bilan izohlanmaydi. U ko'pincha lirik qahramonning jamoaviy muhitdan ma'naviy jihatdan uzoqlashayotganini, biroq undan butunlay uzilib ketmaganini anglatadi. Shu sababli yosh shoirlar she'riyatidagi "men"ni jamiyatga qarshi qo'yilgan mutlaq individual birlik sifatida baholash biryoqlama xulosa bo'ladi. Aksincha, bu "men" jamiyat bilan munosabat jarayonida shakllanadi va o'z mavjudligini aynan ijtimoiy muhit bilan ziddiyat orqali anglaydi.

Bu holat Tajfel va Turnerning ijtimoiy identitet nazariyasidagi qiyoslash mexanizmi bilan ham izohlanishi mumkin. Shaxs o'zini anglash jarayonida "men" va "boshqalar" o'rtasidagi farqni belgilaydi. Badiiy matnda esa mazkur qiyoslash bevosita psixologik tushuntirish orqali emas, balki olmoshlar, murojaatlar, baholovchi birliklar, sukut, yolg'izlik va qarama-qarshilik obrazlari orqali ifodalanadi. Demak, ijtimoiy identitetning she'riy ifodasi mazmuniy qatlam bilan bir qatorda tilning grammatik va semantik imkoniyatlari orqali ham yuzaga keladi.

Behzod Fazliddin she'rlarida kuzatilgan "odamlar nigohi" va ijtimoiy baho masalasi J. H. Midning shaxs o'zligini "boshqalar"ning munosabati orqali anglash haqidagi qarashlarini badiiy jihatdan tasdiqlaydi [3]. Bunday vaziyatda jamiyatning real vakillari muayyan obraz sifatida namoyon bo'lmasligi ham muhimdir. "Odamlar" umumlashgan ijtimoiy kuchga aylanadi. Natijada lirik qahramon aniq bir shaxs bilan emas, balki ichkilashtirilgan ijtimoiy hukm bilan to'qnashadi. Bu esa ziddiyatning tashqi emas, ichki xarakter kasb etishiga sabab bo'ladi.

"Aybnoma" singari matnlarda ijtimoiy bahoning ichkilashtirilishi yanada murakkab shaklga ega. Lirik qahramon tashqi hukmni shunchaki eshitibgina qolmay, uni o'z-o'zini baholash mezoniga aylantiradi. Shu nuqtada shaxs va jamiyat o'rtasidagi chegaralar xiralashadi:

jamiyatning ovozi qahramonning ichki ovozi sifatida yangray boshlaydi. Natijada identitet inqirozi tashqi qarshilikdan ko'ra o'z-o'zini inkor etish shakliga yaqinlashadi. Bu hodisa ijtimoiy identitetning nafaqat guruhga mansublikni belgilashi, balki shaxsning o'ziga bergan bahosiga ham ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi.

Guljamol Asqarova ijodidagi ayol lirik qahramon tajribasi esa ijtimoiy identitet muammosiga genderga xos ijtimoiy kutilmalar nuqtayi nazaridan qarash imkonini beradi. Bunda jamiyat bilan ziddiyat har doim ham ochiq qarshilik shaklida yuzaga kelmaydi. Murosa, sukut, chekinish yoki o'z istaklarini cheklash ham ijtimoiy bosimga javobning shakllaridan biri bo'lishi mumkin. Demak, identitet ziddiyatini faqat faol qarshilik orqali izohlash yetarli emas. Ayrim hollarda shaxs o'zligini saqlab qolish uchun tashqi jihatdan bo'ysunishni tanlashi mumkin, biroq ichki darajada bu holat davomli ziddiyatni yuzaga keltiradi.

Kastelsning qarshilik identiteti haqidagi konsepsiyasi bilan qiyoslaganda, yosh o'zbek she'riyatidagi farqlanishning o'ziga xos tomoni ko'zga tashlanadi [4]. Qarshilik bu yerda doimo jamoaviy yoki ochiq ijtimoiy harakat shaklida emas, balki individual ruhiy tajriba tarzida namoyon bo'ladi. Lirik qahramon jamiyatni o'zgartirishga da'vat etishdan ko'ra, undan ma'naviy masofa saqlashni afzal ko'radi. Shuning uchun she'riy matnlardagi yolg'izlikni oddiy psixologik holat sifatida emas, ayrim hollarda ijtimoiy pozitsiyaning natijasi sifatida talqin qilish mumkin.

Jontemir ijodidagi oraliq identitet holati esa masalani yanada kengaytiradi. Qishloq va shahar, an'anaviy va zamonaviy muhit, o'tmish va bugun o'rtasidagi tafovut lirik qahramonning ijtimoiy mansubligini murakkablashtiradi. Bunda shaxs bir guruhdan chiqib, ikkinchi guruhga to'liq qo'shila olmaydi. Natijada "na u, na bu" shaklidagi oraliq holat yuzaga keladi. Mazkur holatni Bauman ta'riflagan zamonaviy hayotning beqarorligi bilan bog'lash mumkin [5]. Biroq yosh o'zbek shoirlari ijodida bu beqarorlik abstrakt ijtimoiy jarayon sifatida emas, balki aniq makon, xotira, til va insoniy munosabatlar orqali poetiklashtiriladi.

Shu nuqtayi nazardan, makon masalasi ijtimoiy identitetning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Insonning muayyan joyga mansubligi uning o'zini muayyan jamoaning bir qismi sifatida his etishiga yordam beradi. Makon o'zgarganda esa faqat geografik manzil emas, balki ijtimoiy aloqalar tizimi ham o'zgaradi. Natijada lirik qahramon o'zining avvalgi identitetini saqlab qolish va yangi muhitga moslashish o'rtasida qoladi. Shu sababli yosh shoirlar ijodidagi qishloq-shahar qarama-qarshiligini ijtimoiy identitetning makoniy shakli sifatida ham ko'rib chiqish mumkin.

Tahlil qilingan materiallar yana bir muhim jihatni ko'rsatadi: identitet inqirozi yosh shoirlar ijodida yakuniy yemirilish emas, balki o'zlikni qayta qurish jarayonining boshlanish nuqtasi sifatida namoyon bo'ladi. Shaxs tayyor ijtimoiy qolipni qabul qilmagani sari o'zining individual mezonlarini izlashga majbur bo'ladi. Shu sababli "yo'qotilgan men" holati mutlaq yo'qolish emas,

balki yangi “men”ni izlashning poetik shakli sifatida talqin qilinishi mumkin. Bu jihat Eriksonning identitet inqirozini shaxs rivojlanishidagi muhim jarayon sifatida ko‘rishi bilan ma’lum darajada mushtarakdir.

Muhokama jarayonida yana bir metodologik xulosaga kelish mumkin. Ijtimoiy identitetni badiiy matn asosida o‘rganishda psixologik nazariyalarni bevosita she’r mazmuniga ko‘chirish emas, balki ularning poetik belgilarini aniqlash muhimdir. Xususan, “men/biz” qarama-qarshiligi, “odamlar” obrazi, ijtimoiy baho, mansublikdan ajralish, makon almashinuvi, yolg‘izlik va ichki monolog kabi unsurlar nazariy tushunchalarning badiiy ekvivalentlari sifatida qaralishi mumkin. Bunday yondashuv ijtimoiy psixologiya va adabiyotshunoslik o‘rtasidagi metodologik aloqani kuchaytiradi.

Yosh o‘zbek shoirlari ijodida shaxs va jamiyat ziddiyati uch bosqichli jarayon sifatida ko‘rinadi: avvalo, jamiyatning bahosi shaxs tomonidan qabul qilinadi; keyin shaxs ushbu bahoga qarshi ichki yoki tashqi tarzda farqlanishga intiladi; nihoyat, eski mansublik zaiflashib, yangi mansublik hali shakllanmagan oraliq holat yuzaga keladi. Aynan shu jarayon ijtimoiy identitet inqirozining poetik modelini hosil qiladi. Demak, zamonaviy o‘zbek she’riyatidagi “yolg‘iz men”, “aybdor men”, “begona men” va “izlayotgan men” obrazlari bir-biridan uzilgan hodisalar emas, balki shaxsning jamiyat bilan murakkab munosabatlari asosida shakllanadigan yagona identitet jarayonining turli ko‘rinishlaridir.

Xulosa. Istiqlool davrida yosh o‘zbek shoirlari ijodida shaxs va jamiyat munosabati yangi mazmun va badiiy shakllarda namoyon bo‘lmoqda. Ushbu she’riyatda jamiyat lirik qahramon uchun tayyor va o‘zgarmas mansublik makoni sifatida emas, balki uning o‘zligini sinovdan o‘tkazadigan, baholaydigan va ayrim hollarda ichki ziddiyatlarni kuchaytiradigan ijtimoiy muhit sifatida gavdalanadi. Shu sababli ijtimoiy identitet masalasi yosh avlod lirikasining muhim ma’naviy-estetik muammolaridan biriga aylanadi.

She’riy matnlardagi “men” va “biz” munosabati shaxsning jamoa bilan aloqasini ifodalovchi muhim badiiy vosita sifatida ko‘zga tashlanadi. “Men”ning kuchayishi shaxsiylikning oddiy namoyon bo‘lishi emas, balki jamoaviy qadriyatlar bilan individual ehtiyojlar o‘rtasidagi masofaning ortishini anglatadi. “Biz” esa ayrim hollarda birdamlik ramzi bo‘lishdan ko‘ra, yo‘qotilgan yoki zaiflashgan mansublikning belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan olmoshlar tizimi yosh shoirlar she’riyatida ijtimoiy munosabatlarning ichki poetik mexanizmini ochib berishga xizmat qiladi.

Yosh shoirlar ijodida ijtimoiy identitetning ziddiyatli ko‘rinishlari, avvalo, jamiyat bahosining shaxs tomonidan ichkilashtirilishi, undan farqlanishga intilish va ikki xil ijtimoiy muhit o‘rtasida qolish holatlarida ko‘rinadi. Jamiyatning “nigohi” lirik qahramonning o‘ziga bergan bahosiga ta’sir etib, uni o‘z xatti-harakatlarini tashqi mezonlar asosida o‘lchashga undaydi. Ayrim

she'rlarda esa shaxs bunday bahodan uzoqlashishga intiladi, biroq farqlanish ko'pincha g'urur yoki ustunlik emas, balki yolg'izlik va ichki og'riq bilan kechadi.

Oraliq identitet holati esa zamonaviy o'zbek she'riyatining alohida poetik xususiyati sifatida ajralib turadi. Qishloq va shahar, an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar, o'tmish va bugun o'rtasidagi tafovut lirik qahramonning qaysi ijtimoiy makonga mansubligini aniqlashini murakkablashtiradi. Bunday holatda eski muhit bilan aloqalar susayadi, yangi muhit esa to'liq qabul qilmaydi. Natijada shaxs o'zini "oraliqda qolgan" inson sifatida his qiladi. Bu holat ijtimoiy identitet inqirozining eng murakkab ko'rinishlaridan biri bo'lib, zamonaviy insonning o'z o'rnini izlash jarayonini aks ettiradi.

Shuningdek, ijtimoiy identitet inqirozini faqat salbiy hodisa sifatida baholash to'g'ri emas. Tayyor jamoaviy qoliplardan uzoqlashish shaxsni o'zining individual qarashlari, qadriyatlari va hayotiy mezonlarini mustaqil ravishda belgilashga undaydi. Shu ma'noda identitetning vaqtinchalik beqarorligi yangi o'zlikni shakllantirish uchun zarur bo'lgan ichki izlanish jarayoniga aylanadi. Yosh shoirlar lirikasidagi yolg'izlik, begonalik, ichki qarama-qarshilik va mansublik izlash motivlari ana shu izlanishning badiiy ko'rinishlaridir.

Yosh o'zbek shoirlari ijodida ijtimoiy identitet shaxsning jamiyatga oddiy moslashuvi bilan emas, balki mansublik, farqlanish, ijtimoiy baho va o'zlikni anglash o'rtasidagi murakkab munosabatlar orqali shakllanadi. "Men" va "biz" o'rtasidagi ziddiyat, boshqalar nigohi, yolg'izlik, makon almashinuvi va mansublikning javobsiz qolishi bir-birini to'ldiruvchi poetik belgilar sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan zamonaviy o'zbek she'riyatida identitet masalasi insonning jamiyatdagi o'rnini emas, balki uning o'zligini anglash yo'lidagi murakkab ichki harakatini ifodalovchi muhim badiiy-estetik muammo sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tajfel H., Turner J.C. An Integrative Theory of Intergroup Conflict // The Social Psychology of Intergroup Relations. – Monterey: Brooks/Cole, 1979. – P. 33–47.
2. Jenkins R. Social Identity. – 3rd ed. – London; New York: Routledge, 2008. – 246 p.
3. Mead G.H. Mind, Self and Society. – Chicago: University of Chicago Press, 1934. – 401 p.
4. Castells M. The Power of Identity. – Oxford: Blackwell, 1997. – 461 p.
5. Erikson E.H. Identity: Youth and Crisis. – New York: W.W. Norton, 1968. – 336 p.
6. Bauman Z. Liquid Modernity. – Cambridge: Polity Press, 2000. – 228 p.
7. Asqarova G. Uyg'otuvchi alla. – Toshkent: Sharq, 2007. – 112 b.
8. Fazliddin B. Tushlaringdan chiqib keldim. – Toshkent: Tamaddun, 2017.
9. Jontemir. Jazba. – Toshkent: Akademy Nashr, 2022.
10. Faxriyor. Dardning shakli. – Toshkent, 2022.

11. Mahmudova B. Hovuchdagi yurak. – Toshkent, 2012.
12. Mahmudova B. Ufqqa yo‘l. – Toshkent, 2016.
13. Mahmudova B. She’rlar / Tuzuvchi I. Qo‘chqorov. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 128 b.
14. Tillaniso. Dilxat. – Toshkent, 2018.
15. Tillaniso. Qon. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 120 b.